

EFTALIYLAR DAVLATI NOMINING SHAKLLANISHI VA XALQ NOMI BILAN BOG'LIQLIGI

Termiz davlat universiteti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Umidbek Abdurximov Akrom o'gli

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eftaliylar davlati nomining kelib chiqishi, uning etnik va tarixiy asoslari hamda xalq nomi bilan bog'liqligi masalalari yoritilgan. Tadqiqotda Eftaliylar (yoki "Heftalitlar") atamasining turli manbalardagi talqinlari, xususan, fors, xitoy, yunon, hind tarixiy yozuvlaridagi shakllari tahlil qilingan. Eftaliy nomining etimologiyasi haqida ilgari surilgan nazariyalar – "xeptal", "Hyon", "Abdal" kabi variantlar tarixiy-lingvistik nuqtai nazardan solishtirib o'rganilgan. Shuningdek, Eftaliylar davlati tashkil topgan hudud (Xorazm, Tohariston va Sharqiy Eron atrofidagi yerlar) hamda bu davrda yashagan aholining kelib chiqishi, ularning madaniy va siyosiy xususiyatlari tahlil etilgan. Maqolada Eftaliylar nomining shakllanishi xalqning o'z davrida tutgan o'rni, siyosiy birlashuvi va turkiy hamda eroniy unsurlar bilan bog'liq holda izohlanadi. Natijada, Eftaliylar nomi nafaqat siyosiy tuzilmani, balki o'sha davr xalqlarining etnik birligini ham ifodalaganligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: Eftaliylar, Heftalitlar, xalq nomi, etnonim, Tohariston, tarixiy etimologiya, qadimgi turkiylar, oq xunlar, xeptal.

Kirish:

Eftaliylar davlati Markaziy Osiyo tarixida alohida o'rin tutgan yirik siyosiy tuzilmalaridan biridir. Ularning paydo bo'lishi, nomining kelib chiqishi hamda xalq sifatida shakllanishi o'sha davrning murakkab etnik jarayonlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O'zbekiston hududi qadimiy turkiy va eroniy xalqlar

madaniy merosining chorrahasida joylashgani bois, Eftaliylar masalasi nafaqat tarixiy, balki madaniy va ilmiy jihatdan ham dolzarb sanaladi. Eftaliylar haqidagi turli manbalardagi nomlar xilma-xilligi bu xalqning asl kelib chiqishi va ularning etnonimi masalasini chuqur o'rganishni talab etadi. Bu esa Markaziy Osiyoda qadimda yashagan xalqlarning o'zaro aloqalari, siyosiy birlashuvlari hamda madaniy o'zaro ta'sirini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Eftaliylar davlati tarixini o'rganish orqali o'sha davrda shakllangan siyosiy tuzilmalar, ularning boshqaruv tizimi va xalqaro aloqalari haqida aniqroq tasavvur hosil qilish mumkin. Shu sababli, Eftaliylar davlati nomining shakllanishi va xalq nomi bilan bog'liqligini o'rganish masalasi hozirgi tarixshunoslikda dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar:

Eftaliylar tarixi va ularning nomining kelib chiqishi masalasi haqida turli davrlarda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur mavzuga oid dastlabki ma'lumotlar qadimgi yunon, arman, fors, xitoy va arab manbalarida uchraydi. Jumladan, Prokopiyy Kesarskiy, Menandr Protektor, Tabariy, Balazuriy, Faxriddin Muborakshoh kabi mualliflar o'z asarlarida eftaliylar to'g'risida tarixiy va etnik ma'lumotlar berganlar. Keyingi asrlarda bu mavzu bo'yicha V.V. Bartold, A. Bernshtam, G. Gafurov, B. Ahmedov, R. Rajabov, Z. Saidboboyev singari olimlarning tadqiqotlarida Eftaliylar davlatining siyosiy tarixi, etnik tarkibi va nomining etimologiyasi chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy o'zbek tarixshunosligida ham eftaliylarning kelib chiqishi, ularning Markaziy Osiyodagi siyosiy ahamiyati masalalari bo'yicha yangi ilmiy yondashuvlar ilgari surilgan. Manbalarda uchraydigan "Heptal", "Hettal", "Xaytal", "Eftalit", "Oq xunlar" kabi nomlar tahlili orqali tadqiqotchilar eftaliylarning turkiy va eroniy unsurlar bilan bog'liqligini aniqlashga harakat qilganlar. Bu esa mavzuning hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganligini ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar:

Malumki, bugungi O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan o'z zamonasining buyuk davlatlari Qang' va Kushon podsholiklarining milodiy asr boshlarida boshlangan inqirozi

shimoldan ko‘chmanchi turkiy qabilalarning hujumi natijasida yanada kuchaydi. Dastlab, xioniyalar, toharlar va ular bilan birga kirib kelgan kichik etnoslar va eftaliylar bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu turkiy qabilalar hududa o‘z davlatlariga asos soldilar. Ulardan ayniqsa o‘lka hududida yuz yildan ortiq vaqt davomida o‘z hukumronligiga ega bo‘lgan eftaliylarning o‘rni alohida ahamiyatga egadir. Birinchi navbatda eftaliy so‘zining kelishiga to‘xtalsak. Eftaliylar turli manbalarda turlicha, jumladan arman manbalarida “heptal”, “hettal”, “tetal”; yunon manbalarida “eftalit”, “abdel”, “eftal”, “oq xunlar”, arab manbalarida “xaytal”, “xetal” kabi nomlar bilan tilga olinadilar. Hind manbalarida “xuna”; arab manbalarida garchi xaytal nomi bilan tilga olinsalarda, ba‘zi hollarda ularni turklar deb ham tilga olingan. Arman manbalarida esa ular kushonlarning avlodi deb ta‘kidlanadilar. Xitoy manbalarida eftaliylar “e-da”, “e-diyen”, “i-dan”, “e-ta-i-lito” deb tilga olinadilar. Yuqorida tilga olingan nomlardan eftalit nomi ilmiy muomalaga qabul qilingan. O‘rta asr tarixchilarining asarlari orqali bizgacha eftaliylar haqida qiziqarli ma‘lumotlar yetib kelgan. VI asr Vizantiya tarixchisi Prokopiy Kesarskiy eftaliylar xun xalqlari deb yuritsada lekin tashqi ko‘rinish jihatdan katta farq bor¹ligini ta‘kidlaydi. Boshqa yana bir VI asr Vizantiya tarixchisi Agafiy Mirinskiy “Eftaliylar – bu xunlardir” deb ta‘kidlaydi

Eftaliylar V asrning ikkinchi yarmilarida tarixchi Lazar Parbskiy tomonidan «Xeptal tarzida tilga olingan. Keyingi so‘z («xeptal») massagetlardagi yetakchi qabilalarining biridan («xaft eron tilidagi yetti sonini anglatadi) nom olgan fikr yuritiladi. Vizantiyalik Feofan (VI asr) «Eftaliylarni Voxshivar nomli podshosi bo‘lib, uni eftalon deb ataganlar; u boshqargan qabila ham, uning nomi bilan eftaliy deb atalgan» deb yozgan edi. Vizantiya patriarxi Fotiy ham eftaliylar nomi ularga V asrda podsho bulgan kishi

¹ Толстов С.П. Древний Хорезм Древний Хорезм. Москва, 1948.

2 Гумилев Л.Н. Эфталиты и их соседы в IV веке // Вестник древней истории. 1959. № 1 С. 129; Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь: Древность и раннее средневековье.

nomidan olinganligini qayd qilgan edi. Yuqorida keltirilgan barcha fikr-mulohazalar haqida. Feofan va Fotiyning ma'lumotlariga asoslanib eftaliy etnosi ularga hukmronlik qilgan shaxsdan nom olgan desak haqiqatga yaqin bo'lsa kerak. Shu fikr Xitoy voqeana-vislarining axborotlarida ham qayd qilingan. Tanshuda (618-907) aytilishicha Toxariston (Xit. daxa) hukmronining nomi Iyeda bo'lgan. Uning avlodlari davlatni hukmronning oti bilan Yeda deb ataganlar: Iyeda esa Idan bo'lib qolgan. Арман манбаларида эфталийлар “хионлар”, Византия манбаларида “хионитлар” деб номланган.. Nemis olimi F. Althaym o'z asarida eftaliylarni turkiy tilli oltoy qabilalari deb ta'kidlaydi. “Eftal” etnonimini “qilmoq”, “amalga oshirmoq” ma'nosini anglatib turk tili negizidan kelib chiqqan degan fikrni ilgari suradi.⁷ Uning fikricha eftaliylar hukmron tabaqa vakillari hisolanib aslida xalqning nomi hioniylardir, bundan kelib chiqib esa eftallar va hioniylar yagona xalqdir degan nazariyani ilgari suradi. Kidariylar, xioniylar va eftaliylar haqida K.V.Trever arman manbalarida ularning “xeptal” ko'rinishida uchraganligini va bu nom “xaft”, “xapt”- eronchada yetti ma'nosini anglatishini ta'kidlash barobarida ularni yetti oiladan iborat bo'lgan massaget qabilalarining bir qismi bo'lgan degan nazariyani illgari suradi. Uning ta'kidlashicha V asr boshlarida massagetlar ittifoqidan kidariylar ajralib chiqib Toxaristonni egallaydilar, so'ngra Eron sosoniylari bilan to'qnashadilar.²

E.V. Rtveladzening fikricha, eftaliylar baqtriyaning mahalliy aholisi bo'lib o'zlarini – alxonlar (eftaliy tangalarida baqtriy tilida uchragan yozuvga asosan) deb ataganlar. Filolog S. Ataniyozovning ta'kidlashicha eftaliylar turkiy tilli xalq bo'lib Mongoliya cho'llaridan kelib V asr o'rtalarida Qozog'iston cho'llariga o'rinishib u yerda ikki qismga bo'linib, biri- Volga tomon, ikkinchi qismi esa – Amudaryo tomonga ketib Badahshonni o'zlariga poytaxt qiladilar. Olim “abdal” etnonimini tahlil etib uch xil nazariyani ilgari suradi. 1) Abdal so'zi eftaliylar shohi Axshunvor Eftalon nomidan kelib chiqqan desa; 2) Mashhur turkolog N.A.

² Тревер К.В. Кушаны, хиониты и эфталиты по армянским источникам IV-VII вв. // Советская археология.1954 Вып. XXI. С144.

3 А.Курбанов. Эфталиты (очерки истории). Санкт-Петербург, 2006. С.28.

4 Илясов Дж. Некоторые замечания к проблеме эфталитов // Transoxiana. История и культура. Сб.статей. Ташкент.2004.С.117.

5 Толстов С.П. Древний Хорезм. М., 1948. С.277.

Baskakovning qadimgi bulgʻor qabilasi “abdal” ni chuvashchada “avat” (qazimoq, yer haydamoq) + “al” affiksi koʻrsatish olmoshini anglatishini taʼkidlab “dehqon” maʼnosini anglatganligini va bu soʻzni eftaliylarga ham tegishlilikini eʼtirof etadi. 3) Oʻrta asr tarixchisi Balamining (X asr) “xayatila” “xaytal” ning koʻplikdagi koʻrinishi boʻlib Buxorochada “kuchli odam” maʼnosini anglatgan degan fikrlarini keltiradi va ana shu fikrlarni tasdiqlaydi. S. Ataniyazov yana bir qiziq faktni keltirib oʻtadi. Uning fikricha oʻrta asr eftaliylari bilan hozirgi zamon abdallarining aloqadorligi bordir. Uning aytishicha eftaliy shaxzodalar boshlariga toʻrt qirrali va olti qirrali qalpoq kiyganliklarini, shunga oʻxshash qalpoqni turkman-abdallarining bollalari kiyishgan. Suriyalik tarixchi Zaxariyo Rattiyning (VI asr) yoʻlnomasida Shimoliy Kavkazda yashovchi 13 ta hun (gun) qabilalarining ichida abdal, eftaliy atalmalari uchraydi. Soʻzsiz abdal va eftal bir xalqning nomi. Eftaliylar va yuqorida eslatilgan keramxonlar (qizil xonlar)ning tarkibida boʻlib, avval Orol va Kaspiy dengizning shimolidagi mintaqalarda va keyinchalik shimoliy Kavkazga borib oʻrnashganlar. Shu yerlarda qolib ketgan va mahalliy xalqlar aralashgan eftaliylar va xionlar keyinchalik Lazar davlatining tarkibiga kirgan. Qadimgi vatanlarida (Sharqiy Turkistonda, Tangritogʻ togʻlarining shimoliy-sharqida) qolgan eftaliylar Movarounnahr hududlariga kelib oʻrnashganlar. Yana bir davrda abdal (eftaliy) atamasi XIX—XX asr boshlarida turkiy xalqlarining koʻpchiligini (oʻzbek, qozoq, turkman, boshqird va boshqalar) etnik tarkibida uchraydi.

Miloddan avvalgi VII asrlarda Xitoyning gʻarbiy rayonlaridan Hun qabila ittifoqi tarkibidagi komponentlardan biri — badi (baydil) etnosi Pomir togʻlariga kelib oʻrnashgan. Baydil oq di (oq xalq degani). Balki «oq hun» etnonimii Baydil etnosi bilan nomi bilan bogʻliqdir. Bu qabila mahalliy Pomir aholisi bilan aralashib, keyinchalik Yeda-eftaliy nomini olgan deydi L. N. Gumilev (oʻsha asar, 374 b.). Agar olimning aytganlari haqiqatga yaqin boʻlsa, unda eftaliylarning ilk ajdodlari Toxariston hududlariga xunlar davrlaridan kelib qolgan hun qabilalaridan boʻladi.

Xulosa:

Eftaliylar davlati nomining shakllanishi va u bilan bog‘liq xalq nomi masalasi ko‘p qirrali, murakkab va turli tarixiy-lingvistik manbalar asosida izohlanishi mumkin bo‘lgan muhim ilmiy masalalardan biridir. Tadqiqot davomida ko‘rinib turibdiki, “Eftaliylar” atamasi bir vaqtning o‘zida siyosiy tuzilma, hukmron sulola va etnik guruh sifatida qaralgan. Turli manbalarda — yunon, fors, xitoy, hind, arab va arman tarixiy asarlarida ushbu xalq nomining “Heptal”, “Xaytal”, “Abdal”, “E-da”, “Xuna” kabi xilma-xil shakllarda tilga olinishi, ularning tarixiy ildizlari chuqur va ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatadi. Eftaliylarning etnogenezi va nomining kelib chiqishi borasida ilgari surilgan nazariyalar ularning turkiy, eroniy va hattoki huniy (xun) qabilalari bilan aloqadorligini ta’kidlaydi. Ba’zi manbalarda Eftaliylar Kushonlar, massagetlar yoki Xioniylar bilan qarindosh sifatida tasvirlansa, boshqa izlanishlarda ularning nomi bevosita hukmdor — masalan, Eftalon yoki Iyeda — nomidan kelib chiqqani aytiladi. Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar, jumladan S. Ataniyozov va F. Althaym, “Eftal” va “Abdal” atamalarini lingvistik jihatdan turkiy til asosida tahlil qilib, ularning hozirgi turkiy xalqlar bilan genetik va madaniy aloqalariga urg‘u beradilar. Manbaviy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Eftaliylar faqat harbiy-siyosiy kuch emas, balki turkiy va eroniy unsurlar sintezidan tarkib topgan o‘ziga xos madaniy-siyosiy birlashma bo‘lgan. Ularning nomi o‘sha davrda mavjud bo‘lgan murakkab etnik o‘zgarishlar va integratsiyalar mahsuli sifatida vujudga kelgan. Ayniqsa, qadimgi massaget, xioniy, kidariy va huniy komponentlar ularning tarkibiy qismlarini tashkil etgani, bu esa Eftaliylar davlatining etnik xilma-xilligini anglatadi. Shunday qilib, Eftaliylar nomining shakllanishi va uning xalq nomi bilan bog‘liqligi birgina etnik yoki siyosiy faktor bilan izohlab bo‘lmaydi. Bu nom tarixiy jarayonlar, siyosiy yetakchilar, turli etnoslarning o‘zaro qo‘shilishi hamda til va madaniyatlar sintezi natijasida shakllangan murakkab hodisadir. Mazkur mavzu ustida olib borilgan izlanishlar Markaziy Osiyoda qadimiy davrlarda kechgan etnik va siyosiy jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda tarixshunoslikda Eftaliylar masalasining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. М., 1972. С.206.
2. Гумилев Л.Н. Эфталиты и их соседы в IV веке // Вестник древней истории. 1959. № 1 С. 129; Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь: Древность и раннее средневековье. Ташкент, 1999. С.271
3. Шониёзов К. “Қанғ давлати ва қанғлилар”. Тошкент, 1990.
4. Шониёзов К. “Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни”. Тошкент, 2001.
5. Хўжаев А. “Буюк ипак йўли”. Тошкент, 2007.
6. Раҳмон Н. “Турк Ҳоқонлиги”. Тошкент, 1983.
7. Ставиский Б.Я, Вайнберг Б.И. Сасаниды в правобережной Бактрии (Тохаристане) в IV-V вв. // Вестник древней истории. 1972.
8. Курбанов А. Эфталиты (очерки истории). Санкт-Петербург, 2006. С.28.
9. Илясов Дж. Некоторые замечания к проблеме эфталитов // Transoxiana. История и культура. Сб. статей. Т., 2004. С.117.